


XIII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi¹⁾ 2022 yil dekabr oyida 3853,9 ming so'mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 16,3 foizga o'sdi.

Yanvar – dekabr oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sishi iqtisodiy faoliyat turlarining savdo, sohasida (145,3 foizga), axborot va aloqa sohasida (142,0 foizga), bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida (124,4 foizga), kuzatildi.

O'rtacha ish haqining yuqori miqdori iqtisodiy faoliyat turlarining bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida 8874,1 ming so'm (viloyat bo'yicha o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,0 marta ko'p), tashish va saqlashda 5270,9 ming so'm (159,1 foizga), axborot va aloqa sohasida 4287,3 ming so'm (129,4 foizga), sanoatda sohasida 4137,8 ming so'm (124,9 foizga) kuzatildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2022 yil yanvar-dekabr)**



¹⁾ Bu yerda va keyingi o'rinnlarda dastlabki ma'lumotlar, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, gayta hisoblangan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha
oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(qishloq xo'jalikligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

(ming so'm)

	<i>Yanvar-dekabr</i>		<i>Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, foiz</i>	
	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>
Jami viloyat bo'yicha	2864,9	3312,3	x	x
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	3524,8	4137,8	123,0	124,9
Qurilish	3223,3	3438,8	112,5	103,8
Savdo	2520,9	3663,7	88,0	110,6
Tashish va saqlash	4708,9	5270,9	164,4	159,1
Axborot va aloqa	3018,3	4287,3	105,4	129,4
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	7133,3	8874,1	2,5 m.	2,7 m.
Ta'lim	2188,4	2505,3	76,4	75,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy hizmatlar ko'rsatish	2342,6	2598,6	81,8	78,5
Boshqa faoliyat turlari	2856,1	3697,1	99,7	111,6



Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2505,3 ming so'mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 114,5 foizga o'sdi.

Ta’lim sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini Viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori, Buxoro shahrida 3407,8 ming so‘mni viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan (136,0 foiz), Qorovulbozor tumanida 2901,5 ming so‘mni (115,8 foiz) va Kogon shahrida 2591,3 ming so‘mni (103,4 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Peshko‘ tumanida 2088,3 ming so‘mni (83,3 foiz), Kogon tumanida 2075,2 ming so‘mni (82,8 foiz) Vobkent tumanida 1984,1 ming so‘mni (79,2 foiz), tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.



Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4137,8 ming so‘mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 117,4 foizga ko‘paydi.

Sanoat sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Shofirkon tumanida 7212,7 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 174,3 foiz), Qorovulbozor tumanida 6566,0 ming so‘mni (158,7 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Buxoro tumanida 1640,7 ming so‘mni (39,7 foiz) va Vobkent tumanida 1540,5 ming so‘mni (37,2 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.



Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3438,8 ming so‘mni, 2021 yilning mos davriga nisbatan 106,7 foizni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Olot tumanida 4740,4 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 137,9 foiz) bo‘lsa, Kogon tumani 3592,5 ming so‘mni (104,5 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Buxoro tumanida 2546,8 ming so‘mni (74,1 foiz), Qorako‘l tumanida 2320,4 ming so‘mni (67,5 foiz) boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida
ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2598,6 ming so‘mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 110,9 foizni tashkil etdi.

Mazkur sohalardagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Peshko‘tumanida 3536,0 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 136,1 foiz), Qorovulbozor tumanida 3291,2 ming so‘mni (126,7 foiz), Kogon shahrida 2794,8 ming so‘mni (107,6 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Vobkent tumanida 2222,0 ming so‘mni (85,5 foiz), Buxoro tumanida 2147,8 ming so‘mni (82,7 foiz), Qorako‘l tumanida 2006,5 ming so‘mni (77,2 foiz), tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.



Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida
ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8874,1 ming so‘mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 124,4 foizga o‘sdi.



O‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, eng yuqori miqdori Qorovulbozor tumanida 4981,9 ming so‘mni viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan (150,5 foiz), Kogon shahrida 4806,8 ming so‘mni (145,2 foiz), Buxoro shahrida 3861,8 ming so‘mni (116,7 foiz) etgan bo‘lsa, Qorako‘l tumanida 2435,0 ming so‘mni (73,6 foiz), Buxoro tumanida 2395,6 ming so‘mni (72,4 foiz), Vobkent tumanida 2292,9 ming so‘mni (69,3 foiz) tashkil etib boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

O‘rtacha oylik ish haqining eng past ko‘rsatkichlari Buxoro (2395,6 ming so‘m) va Vobkent (2292,9 ming so‘m) tumanlarida kuzatildi. Bu tumanlarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichlari viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan mos ravishda kam bo‘lgan.

Buxoro viloyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(qishloq xo‘jalikligi va kichik tadbirkorlik sub’ektlaridan tashqari)

(ming so ‘m)

	Yanvar- dekabr		Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan, foiz	
	2021 yil	2022 yil	2021 yil	2022 yil
Buxoro viloyati	2864,9	3312,3	x	x
Buxoro sh.	3173,6	3861,8	110,8	116,6
Kogon sh.	4294,8	4806,8	149,9	145,1
<i>tumanlar</i>				
Buxoro	2516,4	2430,8	87,8	73,4
Vobkent	1904,5	2292,9	66,5	69,2
Jondor	2291,1	2547,9	80,0	76,9
Kogon	2538,4	2557,9	88,6	77,2
Olot	2347,2	2662,8	81,9	80,4
Peshko‘	1901,6	2656,2	66,4	80,2
Romitan	2547,6	3081,9	88,9	93,0
Shofirkon	2129,3	2535,0	74,3	76,5
Qorako‘l	2122,2	2435,0	74,1	73,5
Qorovulbozor	4250,0	4981,9	148,3	150,4
G‘ijduvon	2266,5	2527,6	79,1	76,3